TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISXAKOVA FATIMA FAXRITDINOVNA

KALSINATSIYALANGAN SODANI ISHLAB CHIQARISHDA KARBONIZATSIYALASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRILGAN BOSHQARUVI

05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K 681.542.2

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of Doctor Philosophy (PhD)

Isxakova Fatima Faxritdinovna
Kalsinatsiyalangan sodani ishlab chiqarishda karbonizatsiyalash jarayonini takomillashtirilgan boshqaruvi .....……..... 3

Исхакова Фатима Фахритдиновна
Усовершенствованное управление процессом карбонизации при производстве кальцинированной соды..... 21

Isxakova Fatima Faxritdinovna
Improved control of the carbonization process in soda ash production …….. 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works …….....42

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISXAKOVA FATIMA FAXRITDINOVNA

KALSINATSIYALANGAN SODANI ISHLAB CHIQARISHDA KARBONIZATSIYALASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRILGAN BOSHQARUVI

05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/T6988 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yusupbekov Nodirbek Rustambekovich** texnika fanlari doktori, professor, O‘zR FA akademigi
Rasmiy opponentlar:	**Ivanyan Arsen Ignatyevich** texnika fanlari doktori (DSc)
	Xamidov Baxodir Tadjiddinovich texnika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**“Uzkimyosanoatloyiha” AJ**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «7» 12 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (179 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2. Tel.: (99871) 207-14-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «23» 11 kuni tarqatildi.
(2026 yil «2» 11 dagi 21 raqamli bayonomasi).

F.T.Adilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rais o‘rinbosari, t.f.d., professor

U.F.Mamirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori (DSc), professor

X.Z.Igamberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor, O‘zR FA akademigi

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda jahonda murakkab kimyoviy-texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlariga, xususan matematik modellashtirish va bashoratli boshqarish usullaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarishda karbonizatsiya jarayonini boshqarishda energiya va resurs tejamkorlikka erishish, shu bilan birgalikda mahsulot sifatining barqarorligini ta’minlovchi modellar, algoritmlar va tizimlarni ishlab chiqishga qaratilgan ishlanmalar istiqbolli hisoblanadi. Bu borada, karbonizatsiya jarayonining monand dinamik modelini yaratish va uning asosida jarayon texnologik parametrlarining o‘zgarishlarini hisobga oluvchi bashoratli boshqarish tizimlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahonda sanoat korxonalaridagi murakkab texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish va zamonaviy texnologiyalar asosida boshqarish tizimlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, texnologik jarayonlarning holatlarini ularning parametrlarini o‘zgarishlarini real vaqt rejimida bashoratlash tizimlarini qurish imkonini beruvchi matematik modellar, usullar va algoritmlarni yaratish dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan, karbonizatsiya jarayoning termodinamik, kinetik va dinamik xususiyatlarini hisobga oluvchi matematik modellarni ishlab chiqish hamda ular asosida texnologik parametrlarning o‘zgarishlarini bashoratlash imkonini beruvchi takomillashgan boshqarish algoritmlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish hamda boshqarishning ilmiy-texnik yo‘nalishlarini rivojlantirishga, xususan, energiya va resurs tejamkorligini, barqarorligini va mahsulot sifatini ta’minlaydigan boshqarish tizimlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Murakkab kimyoviy-texnologik jarayonlari, shu jumladan kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning intellektual tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, xususan, “... iqtisodiyotning energiya va resurs sig‘imini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish”[1] vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirilishda, jumladan, kalsinatsiyalangan sodani ishlab chiqarishda karbonizatsiyalash jarayonini takomillashtirilgan boshqarish tizimlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-apreldagi PF-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy etish tizimini yanada

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyarga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida murakkab kimyoviy-texnologik jarayonlarni, jumladan, moddalarning absorbsiyasi, kristallanishi va ajratilishi jarayonlarini yuqori samarali boshqarish tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, bu kabi tadqiqotlar “Honeywell”, “Siemens”, “Aspen Tech” kompaniyalarida, Massachusetts Institute of Technology (AQSh), Delft University of Technology (Niderlandiya), Tsinghua University (Xitoy), Osaka University va Tokyo Institute of Technology (Yaponiya) hamda boshqa ilmiy markazlarda faol olib borilmoqda. Mazkur ilmiy institutlarda tadqiqotlar murakkab ko‘p fazali jarayonlarni matematik modellashtirish usullarini ishlab chiqish, intellektual va bashoratli boshqarish tizimlarini yaratish, texnologik jarayonlarning energiya va resurs tejamkorligini, qurilmalarning barqarorligini va ishlash sifatini oshirishni ta’minlaydigan raqamli egizaklar hamda intellektual boshqarish tizimlari konsepsiyasini rivojlantirishga qaratilgan.

Murakkab texnologik jarayonlarni modellashtirish va boshqarish nazariyasi hamda amaliyotini rivojlantirishga xorijlik olimlar J.B.Rawlings [2], J.Qin [3], S.Skogestad[4], V.Cristea[5], X.Jin[6], P.Wylock[7], B. Haut[8], A.M.Cormos[9], A.Saberi[10], A.S.Goharrizi [11], Zhang [12], A.G.Afanasenko [13] va boshqalar salmoqli hissa qo‘shganlar.

---

[2] Rawlings J.B., Mayne D.Q. Model Predictive Control: Theory and Design. – Madison: Nob Hill, 2009. – 566 p.

[3] Qin S.J., Badgwell T.A. A survey of industrial model predictive control technology. // Control Engineering Practice. – 2003. – Vol. 11, No. 7. – P. 733–764.

[4] Skogestad S., Postlethwaite I. Multivariable Feedback Control: Analysis and Design. – 2nd ed. – Chichester: Wiley, 2005. – 559 p.

[5] Cristea V.-M. Control Approaches of the Carbonation Column for Soda Manufacturing // Studia UBB Chemia. – 2017. – V. LXII, № 4, P. II. – C. 221–229. – DOI: 10.24193/subbchem.2017.4.19.

[6] Xiaoming Jin, Shuji Z., Wenlie L., Deying Z., Xinchun Z. On Applying Model Predictive Control for Carbonation Towers in Manufactory of Soda Ash // Information Technology Journal. – 2013. – T. 12, № 19. – C. 4911–4917. – DOI: 10.3923/itj.2013.4911.4917.

[7] Wylock C., Larcy A., Cartage T., Haut B., Compartmental modelling of an industrial bubble column / 8th world congress of chem eng (WCCE8), Chemical Engineering Unit, Université Libre de Bruxelles), (2009)

[8] Benoît Haut, Véronique Halloin, Thierry Cartage, Arnaud Cockx. Production of sodium bicarbonate in industrial bubble columns // Chemical Engineering Science. – 2004. – Vol. 59. –P. 5523–5535. – DOI: 10.1016/J.CES.2004.07.110.

[9] Ana-Maria Cormos, Paul Serban Agachi. Modeling and Simulation of Carbonation Process of Brine for Obtaining Sodium Carbonate // Revista de Chimie. – 2006. – Vol. 57. – No. 2. – P. 130–137.

[10] Saberi A., Goharrizi AS., Ghader S., Precipitation kinetics of sodium bicarbonate in an industrial bubble column crystallizer. Cryst Res Technol 44(2), (2009), 159–166.

[11] Goharrizi AS. , Abolpour B. Estimation of sodium bicarbonate crystal size distributions in a steady-state bubble column reactor. Res Chem Intermed 38(7), (2012), 1389–1401.

[12] Zhang H., Wang Y., Li C. Application of neural network-based predictive models in soda ash production //

Ularning tadqiqotlari dinamik modellarni qurish usullarini ishlab chiqish, prediktiv boshqaruv algoritmlarini sintez qilish, ko‘p bog‘lanishli tizimlarni tahlil qilish va murakkab kimyoviy-texnologik jarayonlarni, jumladan, karbonizatsiya va kristallanish jarayonlarini optimallashtirishga yo‘naltirilgan.

Mamlakatimizda N.R.Yusupbekov[14], X.Z.Igamberdiev[15], Sh.M.Gulyamov[16], D.P.Muxitdinov[17], I.X.Siddikov[18], M.A.Ismailov[19], Z.E.Iskandarov[20] kabi taniqli olimlarimiz texnologik jarayonlarni, shu jumladan, ko‘p komponentli jarayonlarni matematik modellashtirish, optimallashtirish va avtomatlashtirish usullarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar.

Bajarilgan tadqiqotlarning salmoqli hajmiga qaramay, so‘nggi yillarda texnologik jarayonlar, xususan, ammoniylashtirilgan tuzli eritmani karbonizatsiyalash jarayoni jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Bu energiya samaradorligini oshirish, xomashyo sarfini kamaytirish, ekologik talablarning kuchayishi va mahsulot sifatiga qo‘yiladigan talablarning ortishi bilan bog‘liq holda sezilarli darajada murakkablashdi. Bu esa an’anaviy lokal boshqarish tizimlaridan nochiziqli dinamikani, kanallararo bog‘lanishlarni va texnologik cheklovlarni hisobga olishga qodir bo‘lgan intellektual boshqarish tizimlariga o‘tishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, adabiyotlarda karbonizatsiya jarayonini boshqarishning yagona konturida dinamik modellashtirish, prediktiv boshqaruv va raqamli texnologiyalarni birlashtiruvchi kompleks yondashuvlarni ishlab chiqishga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Boshqarish algoritmlari doirasida reaksiya kinetikasini, massa almashinish, kristallanish jarayonlarini va texnologik rejim cheklovlarini bir vaqtning o‘zida hisobga olish imkonini beradigan integratsiyalashgan yechimlar mavjud emas.

Shu munosabat bilan, karbonizatsiyalash jarayonini modellashtirish va prediktiv boshqarishning takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining samaradorligi, barqarorligi va ishonchliligini oshirishga qaratilgan dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Chemical Engineering Journal. – 2020. – Vol. 389. – Article 124332.

[13] Афанасенко А.Г., Веревкин А.П. Нейросетевое моделирование показателей качества процесса карбонизации. Математическое моделирование, численные методы и комплексы программ, Уфа: УГАТУ, 2009, Т. 13, № 2 (35), с. 222–225.

[14] Юсупбеков Н.Р., Зокиров С.Г., Нурмухамедов Х.С. Кимёвий технология асосий жараён ва қурилмалари: назария, ҳисоб, лойиҳа. – Тошкент: «Sharq» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2023. – 608 б.

[15] Х.З.Игамбердиев "Теория автоматического управления" “Zuxro baraka biznes” 2024. - 680 б.

[16] Sh.Gulyamov, Yu.Avazov, E.Samadov, N.Khojiyeva, Q.Bazarbaeva. Some issues of increasing energy efficiency of advanced process and production control systems // AIP Conference Proceedings.2025.

[17] D.Mukhitdinov, Yo.Kadirov, V. Shamsutdinova, G. Chulieva, D.Abdullaeva. Fuzzy MIMO model for efficient control of complex processes with uncertainties and nonlinearities // E3S Web of Conferences. – 2024.

[18] I.X. Siddikov, D.M. Umurzakova, O.V. Porubay, T.M. Abdullayev. Impact of Steady-State Error Minimization on the Performance of Numerical Optimization Techniques in Linear Automatic Control Systems // Journal of Robotics and Control (JRC). – 2025. – Vol. 6. – No. 6.

[19] M.Ismailov, F.Kasimov, Ru Jiang, Dong Zhang. Development of a Control Device and Algorithm for Autonomousmoving Systems // Chemical Technology, Control and Management. Vol. 2(92). – 2020. — pp. 62-69.

[20] Z. Iskandarov, T. Avezov, U. Khujanazarov. Fuzzy control system for yarn tension in the warping process // AIP Conference Proceedings. – 2025.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining quyidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarining OT-F7-88 – "Toza mahsulotlar olish uchun energiya va resurs tejamkor issiqlik-massa almashinish jarayonlarining istiqbolli murakkab kimyoviy-texnologik tizimlari nazariy asoslarini takomillashtirish" (2017-2020yy.) va FL-9524115110 – ""Sanoat 4.0" strategiyasi asosida murakkab texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni boshqarishda sun'iy intellekt va raqamlashtirishni qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari" (2025-2029yy.) mavzulardagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi termodinamik-kinetik va dinamik modellar asosida ammoniylashtirilgan tuzli eritmani karbonizatsiyalash jarayonini boshqarishning matematik ta'minotini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ammoniylashgan tuzli eritmani karbonlashtirishni matematik tavsiflash va boshqarishning zamonaviy usullarini tahlil qilish, jarayonning samaradorligi va mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, shuningdek mavjud avtomatik boshqarish tizimiga bo'lgan cheklanishlarni baholash;

tajriba va sanoat ma'lumotlari asosida reaksiyalar kinetikasi, issiqlik va massa almashinish, gaz-suyuqlik tizimining gidrodinamikasi hamda natriy gidrokarbonatning kristallanish qonuniyatlarini hisobga oluvchi karbonizatsiya jarayonining dinamik matematik modelini ishlab chiqish va tasdiqlash;

karbonizatsiya jarayonining LPV-ko'rinishini ishlab chiqish va uning asosida texnologik cheklovlar hamda noaniqliklarni inobatga olgan holda asosiy texnologik parametrlarni muvofiqlashtirilgan tarzda rostlashni ta'minlaydigan ko'p o'lchamli modelga asoslangan bashoratli boshqarish (MPC) tizimini sintezlash;

jarayonning o'lchash qiyin bo'lgan parametrlarini baholash uchun virtual analizator ishlab chiqish va uni karbonizatsiya kolonnasining avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi tarkibiga integratsiyalash imkoniyatini tadqiq etish;

ishlab chiqilgan MPC-tizimi va an'anaviy rostlash usullarini imitatsion modellashtirish hamda qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, uni sanoatga joriy qilishning texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarishda ammoniylashtirilgan tuzli eritmani karbonizatsiyalash jarayonini boshqarish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti karbonizatsiya kolonnasi rejimlarini matematik modellashtirish, identifikatsiyalash, bashoratli boshqarish va optimallashtirish usullari modellari va algoritmlaridan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, matematik modellashtirish, intellektual va noaniq boshqarish, shuningdek, murakkab dinamik obyektlarni optimallashtirish va bashoratlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kimyoviy reaksiyalar kinetikasi, issiqlik va massa almashinish jarayonlari, gaz-suyuqlik tizimining gidrodinamik xususiyatlari hamda natriy bikarbonatning

kristallanish qonuniyatlarini hisobga olgan holda karbonizatsiya jarayonining dinamik matematik modeli ishlab chiqilgan;

holatlar fazosi matritsalarini joriy texnologik o‘zgaruvchilar orqali parametrlashtirish asosida karbonizatsiya kolonnasi nochiziqli modelini obyekt uchun boshqaruvni sintezlashda chiziqli usullardan foydalanish imkonini beradigan parametrlari o‘zgaruvchan model ko‘rinishda taqdim etish yondashuvi taklif etilgan;

boshqarish ta’sirlari va nazorat qilinadigan o‘zgaruvchilarga qo‘yilgan cheklovlarni hisobga olgan holda, o‘zaro bog‘liq texnologik parametrlarni muvofiqlashtirilgan tarzda boshqarishni ta’minlaydigan karbonizatsiya jarayonini model-bashoratli boshqarishning ko‘p o‘lchovli tizimi tuzilmasi ishlab chiqilgan;

fizik-kimyoviy jarayonlarning matematik modeliga asoslangan va real vaqt rejimida o‘lchash qiyin bo‘lgan karbonizatsiya jarayonining sifat parametrlarini baholash uchun mo‘ljallangan virtual analizator taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kalsinatsiyalangan soda ishlab chiqarishda karbonizatsiyalash kolonnalarining ish rejimlarini tahlil qilish, optimallashtirish va bashoratlash uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan matematik model va dasturiy majmua ishlab chiqilgan;

o‘zaro bog‘liq texnologik parametrlarni muvofiqlashtirilgan holda boshqarish va texnologik cheklovlarni hisobga olish orqali ko‘p bog‘lanishli karbonizatsiyalash jarayonini boshqarish sifatini oshirishni ta’minlaydigan MPC tizimi taklif etilgan;

jarayonning o‘lchash qiyin bo‘lgan ko‘rsatkichlarini tezkor nazorat qilish va qurilmaning ishlash rejimini real vaqt rejimida sozlash imkonini beradigan virtual analizator ishlab chiqilgan;

ish natijalarini talab qilingan sifatdagi natriy bikarbonat unumini oshirishga, CO_2 va energiya resurslari sarfini kamaytirishga, shuningdek, texnologik rejim barqarorligini oshirishga yordam beradi amaldagi TJABTga joriy etish uchun strukturaviy imitatsion modeli taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarning ishonchliligi dinamik tizimlarni matematik modellashtirish va boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalanilganligi, qo‘llanilgan matematik apparatning to‘g‘riligi va ishlab chiqilgan prediktiv boshqarish algoritmlarining ishchanligi, shuningdek, tahliliy tadqiqotlar, kompyuterda modellashtirish va hisoblash tajribalari natijalarining o‘zaro muvofiqligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati murakkab nochiziqli ko‘p bog‘lanishli kimyoviy-texnologik obyektlarni boshqarishning nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirish, ko‘p fazali jarayonlarni modelli-prediktiv boshqarish usullarini takomillashtirish va ammoniylashtirilgan tuzli eritmani karbonizatsiyalash jarayonlarini raqamli boshqarish bo‘yicha ilmiy tasavvurlarni kengaytirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati texnologik rejimning sifati va barqarorligini oshirish, maqsadli mahsulot chiqimini ko‘paytirish, solishtirma energiya va reagentlar sarfini kamaytirish, shuningdek, kalsinatsiyalangan soda

ishlab chiqarishning amaldagi avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini modernizatsiya qilish imkonini beruvchi karbonizatsiya jarayonining matematik modeli, virtual analizator hamda modelga asoslangan bashoratli boshqarish algoritmlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Karbonizatsiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy natijalar asosida:

karbonnizatsiya jarayonining dinamik matematik modelining dasturiy ta’minoti “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJga joriy qilingan (“O‘zkimyosanoat” AJ ning 2026-yil 21-avgustdagi 14-2199-son ma’lumotnomasi). Natijada texnologik parametrlarni 4,7% maksimal nisbiy xatolik bilan bashoratlash imkonini bergan;

ko‘p o‘lchamli modelga asoslangan bashoratli boshqarish tizimi “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJga joriy qilingan (“O‘zkimyosanoat” AJ ning 2026-yil 21-avgustdagi 14-2199-son ma’lumotnomasi). Natijada rostlash aniqligi ikki barobar oshib, o‘tish jarayonining davomiyligi deyarli ikki barobariga qisqarishiga erishilgan;

virtual analizator “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJga joriy qilingan (“O‘zkimyosanoat” AJ ning 2026-yil 21-avgustdagi 14-2199-son ma’lumotnomasi). Natijada real vaqt rejimida o‘lchanishi qiyin bo‘lgan parametrlarning tezkor baholanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida taqdim etilgan va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta maqola chop etilgan bo‘lib, shundan 1 tasi xorijiy ilmiy jurnalda nashr etilgan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarga O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan ro‘yxatdan o‘tkazish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovani o‘z ichiga oladi. Ishning umumiy hajmi 116 sahifa matndan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobda ammoniylashtirilgan namakobni karbonizatsiyalash jarayonini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Mavjud boshqarish tizimlari asosan mahalliy tartibga solishga asoslanganligi va texnologik parametrlarning o‘zaro bog‘liqligini yetarli darajada hisobga olmasligi aniqlandi.

Model-prediktiv boshqarish tizimini sintez qilish uchun jarayonning dinamik modelini ishlab chiqish zarurati asoslandi.

Ikkinchi bobda ammoniylashtirilgan tuzli eritmani karbonizatsiyalash jarayonining matematik modeli ishlab chiqilgan va tadqiq qilingan.

Aniqlanishicha, karbonizatsiya jarayoni ammiak-soda ishlab chiqarishning asosiy bosqichi bo‘lib, natriy bikarbonat kristallarining chiqishi, sifati va morfologik xususiyatlarini belgilaydi. Jarayonning kimyoviy mexanizmi CO_2 ning yutilishi, oraliq birikmalarning hosil bo‘lishi, gidroliz va $NaHCO_3$ ning keyingi kristallanish bosqichlarini o‘z ichiga olishini ko‘rsatib o‘tilgan. Jarayonning dastlabki bosqichlarida uglerod dioksidining kimyoviy absorbsiyasi cheklovchi hisoblanadi, karbonizatsiya darajasi ortishi bilan esa hajmiy reaksiyalar va diffuziya jarayonlarining ta’siri ortadi.

Dinamikaning dastlabki miqdoriy tavsifi uchun maqsadli mahsulotning hosil bo‘lish tezligi va boshlang‘ich moddalar konsentratsiyasining o‘zgarishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradigan umumiy reaksiya modelidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Qabul qilingan farazlar asosida komponentlarning shartli belgilari (*$NaCl$ – A; NH_4OH – B, CO_2 – C; $NaHCO$ – E; NH_4Cl – F)* kiritiladi, so‘ngra reaksiyalar tizimi ixcham shaklda (1) – (2) taqdim etiladi.

$$NaCl + NH_4OH + CO_2 = NaHCO_3 + NH_4Cl, \tag{1}$$

$$A + B + C \rightarrow E(k_1) + F(k_2). \tag{2}$$

Jarayon dinamikasi ta’sir etuvchi massalar qonuni asosida tavsiflanadi hamda reaksiyaning umumiy tezligiga to‘g‘ri va teskari aylanishlarning hissasini inobatga oluvchi (3)-(4) ifodalar bilan rasmiylashtiriladi:

$$D(t,c) = \begin{cases} \dfrac{\partial C_A}{\partial t} = -(k_1 + k_2) \cdot C_A \cdot C_B \cdot C_c, \\ \dfrac{\partial C_B}{\partial t} = -(k_1 + k_2) \cdot C_A \cdot C_B \cdot C_c, \\ \dfrac{\partial C_C}{\partial t} = -(k_1 + k_2) \cdot C_A \cdot C_B \cdot C_c, \\ \dfrac{\partial C_E}{\partial t} = k_1 \cdot C_A \cdot C_B \cdot C_c, \\ \dfrac{\partial C_F}{\partial t} = k_2 \cdot C_A \cdot C_B \cdot C_c. \end{cases} \tag{3}$$

bu yerda: C_A, C_B va C_C – tegishli moddalarning mol/l da o‘lchanadigan konsentratsiyalari; k_1 va k_2 – kimyoviy reaksiya tezligi konstantalari.


$$D(t,c)=\begin{bmatrix} -(k_1+k_2)\cdot c_1\cdot c_2\cdot c_3 \\ -(k_1+k_2)\cdot c_1\cdot c_2\cdot c_3 \\ -(k_1+k_2)\cdot c_1\cdot c_2\cdot c_3 \\ k_1\cdot c_1\cdot c_2\cdot c_3 \\ k_2\cdot c_1\cdot c_2\cdot c_3 \end{bmatrix}. \quad (4)$$

Hisoblash tajribasida dastlabki konsentratsiyalar va tezlik konstantalari qiymatlari qo‘llanildi:


C_1=1; C_2=1.1; C_3=1.2; C_4= 0; C_5=0; k_1=1; k_2=k_1+0,02.

Tizimning sonli yechimi Mathcad dasturida to‘rtinchi tartibli Runge-Kutta usuli yordamida amalga oshirildi. Modellashtirish natijalari (1-rasm) natriy gidrokarbonatning hosil bo‘lishi va ammoniy xloridning vaqt o‘tishi bilan to‘planish qonuniyatlarini o‘rganish imkonini berdi.


Tajribaviy ma’lumotlar asosida asosiy texnologik bog‘lanishlar aniqlandi hamda kolonnananing $NaHCO_3$ bo‘yicha unumdorligini jarayon haroratiga (2-rasm), bog‘langan NH_4Cl miqdorini kristallanish zonasi haroratiga (3-rasm), shuningdek, absorbsiya va sovutish zonalarining o‘lchamlarini karbonat angidrid sarfiga bog‘liqligini ifodalovchi approksimatsiyaviy bog‘lanishlar olindi (4-rasm).




1-rasm. Karbonizatsiya kimyoviy reaksiya kinetikasining grafiki.



2-rasm. $NaHCO_3$ hosil bo‘lishiga haroratning ta’siri.



3-rasm. Suspenziyadagi NH_4Cl konsentratsiyasiga haroratning ta’siri.



4-rasm. Sovutish zonasi kattaligining CO_2 sarfiga bog‘liqligi.

Modellashtirish xatosi qo‘llanma bo‘yicha aniqlandi: SOR=$\Sigma(Y\text{-}L_1)^2$ va 0.265 ni tashkil etdi, bu ruxsat etilgan.

Harorat natriy gidrokarbonat unumiga ham, suspenziyadagi bog‘langan ammoniy xlorid NH_4Cl miqdoriga ham ta’sir qiluvchi omillardan biri ekanligi aniqlandi.

Shunga qaramay, empirik bog‘liqliklar jarayonning ichki tuzilishini aks ettirmaydi, bu esa umumiyroq dinamik qo‘yilishga o‘tishni talab qiladi.

Jarayonni dinamikada tavsiflash uchun holatlar fazosida nochiziqli matematik model ishlab chiqilgan. Modelni qurishda kimyoviy kinetika, moddiy va issiqlik balans tenglamalari, shuningdek, massa almashinish va diffuziya munosabatlaridan foydalanildi. Modelning asosiga ta’sir etuvchi massalar qonuni va kimyoviy reaksiyalar tezligiga haroratning ta’sirini hisobga olish imkonini beruvchi Arrenius tenglamasi olingan.

Ta’sir etuvchi massalar qonuni reaksiyaning tezligi ishtirok etuvchi moddalar konsentratsiyalarining ko‘paytmasiga bevosita bog‘liqligini, har bir konsentratsiya reaksiyani tavsiflovchi tenglamadagi uning stexiometrik koeffitsiyentiga mos keladigan darajaga ko‘tarilishini tasdiqlaydi.

$$r_j = k_j(T)\prod_{i=1}^{n} C_i^{v_{ij}},$$

bu yerda: $k_j(T)$ – tezlik doimiysi, v_{ij} – stexiometrik koeffitsiyentlar.

Karbonizatsiya jarayonida moddalar konsentratsiyasining o‘zgarishini tavsiflash uchun umumlashtirilgan differensial tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\frac{d[C_i]}{dt} = R_i(C_1, C_2, ..., C_n, T, P) + D_i + F_i,$$

bu yerda: C_i – reaksiyada ishtirok etayotgan barcha moddalarning konsentratsiyasi (mol/l); t – vaqt (s); R_i – i-komponentning hosil bo‘lish yoki sarflanish tezligini tavsiflovchi funksiya; T – tizim harorati (K); P – bosim (Pa); D_i – diffuziya; F_i – konvektiv ko‘chish.

Vektor-matritsa shaklida bu tenglamani quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$\frac{dC}{dt} = S_r(C, T) + D + F,$$

bu yerda: S – stexiometrik matritsa.

Keyinchalik kimyoviy o‘zgarishlarning stexiometrik matritsasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u reaksiya tizim komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning rasmiylashtirilgan tavsifini ta’minlaydi. Uning asosida moddaning konvektiv va diffuziya almashinishi hisobga olgan holda, komponentlar konsentratsiyasining fazo va vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ifodalovchi nochiziqli differensial tenglamalar tizimi hosil qilindi.

Aniqroq tasavvur qilish uchun bu tenglamani quyidagi ko‘rinishda qayta yozish mumkin:

$$\frac{dCx_i}{dt} = \sum_{j=1}^{n} v_{ij}\omega_j,\ i = \overline{1,m}.$$

Jarayonning issiqlik balansi quyidagi nisbat bilan tavsiflanadi:

$$pc_r \frac{dT}{dt} = Q_{reak.} + Q_{issiqlikalmash.}.$$

Fazoviy bir jinsli bo‘lmaganlikni hisobga olib, konsentratsiyalar dinamikasini quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{\partial C_i}{\partial t} = R_i + D_i \frac{\partial^2 C_i}{\partial z^2} - v\frac{\partial C_i}{\partial z}.$$

Taqdim etilgan ma’lumotlar asosida qurilgan kinetik model karbonizatsiya jarayonini tushunish, optimallashtirish va boshqarish, shuningdek, yangi texnologiyalar va materiallarni ishlab chiqish uchun qimmatli vosita bo‘lishi mumkin. U jarayon haqida chuqur tasavvurga ega bo‘lish, uning xatti-harakatlarini bashorat qilish, ish rejimlarini optimallashtirish, boshqarish algoritmlarini (MPC/NMPC) sintez qilish, shuningdek, yanada samarali yechimlarni yaratish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan model validatsiyasi o‘tkazildi. Modellashtirish natijalarini eksperimental ma’lumotlar bilan taqqoslash jarayon tavsifining qoniqarli aniqligini ko‘rsatdi. Maksimal nisbiy xatolik 4,7% dan oshmaydi, bu esa modelning adekvatligini va undan karbonizatsiya rejimlarini bashorat qilish hamda optimallashtirish uchun foydalanish mumkinligini tasdiqlaydi.

Olingan model optimal boshqarish masalalarini yechish uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega: jarayonning dinamik xususiyatini, texnologik o‘zgaruvchilarning ko‘p bog‘lanishini hisobga oladi, texnologik cheklovlarni kiritishga ruxsat beradi va obyektning yakuniy vaqt gorizontida holatini bashorat qilishni ta’minlaydi.

Uchinchi bobda ammoniylashtirilgan tuzli eritmani karbonizatsiyalash jarayonini modelli-prediktiv boshqarish tizimi ishlab chiqilgan.

Karbonizatsiya kolonnasi yaqqol ifodalangan nochiziqlilik, ko‘p bog‘lanishlilik, texnologik cheklovlarning mavjudligi hamda turli foydalanish rejimlari o‘rtasida o‘tishdagi dinamik xususiyatlarning o‘zgarishi bilan tavsiflanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu sababli tartibga solishning an’anaviy usullari boshqarishning talab qilingan sifatini ta’minlamaydi.

Modelni bashoratli boshqarish (MPC) tizimini sintez qilish masalasi boshqaruvchi va rostlanuvchi o‘zgaruvchilarga bo‘lgan cheklovlarni hisobga olgan holda ko‘p o‘lchovli optimal boshqarish masalasi sifatida shakllantirilgan. Jarayonning boshqaruvchi ta’sirlari, nazorat qilinadigan parametrlari va asosiy g‘alayonlantiruvchi omillari aniqlandi. Obyektning bashoratlovchi modeli, optimallashtirish bloki, teskari aloqa konturi va sirpanuvchi gorizont mexanizmini o‘z ichiga olgan MPC-rostlagichning strukturasi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan tizim obyektning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashorat qilish va boshqarishning

har bir qadamida optimallashtirish masalasini hal qilish asosida boshqarish ta’sirlarini shakllantirishni ta’minlaydi.

Tizim sintezi masalasining qo‘yilishini quyidagicha ifodalash mumkin:


$$x_{k+1} = A(p_k)x_k + B(p_k)u_k,$$
$$y_k = C(p_k)x_k$$

va optimallashtirish funksiyasini:


$$J = \sum_{i=1}^{N_P} (y_{k+i} - y_{ref})^T Q(y_{k+i} - y_{ref}) + \sum_{i=0}^{N_{c-1}} \Delta u_{k+i}^T R \Delta u_{k+i}.$$

Prediktorni shakllantirish uchun boshqaruvchi ta’sirlar, tashqi g‘alayonlar va nazorat qilinadigan chiqish o‘zgaruvchilarini hisobga oluvchi holatlar fazosining diskret modelidan foydalanilgan. Bashoratlash va boshqarish gorizontlarini, shuningdek, sifat funksionalining vazn koeffitsiyentlarini tanlashni asoslash amalga oshirildi.

5-rasmda modelli-prediktiv tartibga solish tamoyili bo‘yicha ishlaydigan boshqarish tizimining tarkibiy sxemasi keltirilgan bo‘lib, unda boshqarish ta’siri obyekt dinamikasini bashorat qilish va yakuniy gorizontda optimallashtirish masalasini yechish asosida shakllantiriladi.




5-rasm. MPC asosidagi rostlagichni qo‘llagan holda obyektni avtomatik boshqarishni tashkil etish sxemasi.



6-rasm. Obyektning bashoratlovchi modeli va optimallashtirish blokini o‘z ichiga olgan MPC-rostlagichli boshqarish tizimining tarkibiy sxemasi.

6-rasmda MPC-rostlagich asosiy rol o‘ynaydigan boshqaruv tizimining yanada batafsil tuzilmasi tasvirlangan. Uning tarkibiga boshqariladigan obyektning bashorat modeli va optimallashtirish bloki kiradi. Ushbu tuzilmada bashorat qiluvchi model chiqish o‘zgaruvchilarining kelajakdagi trayektoriyalarini hisoblash uchun ishlatiladi, optimallashtirish bloki esa tizimning kirish va chiqish parametrlariga qo‘yilgan sifat mezonlari va cheklovlarni hisobga olgan holda optimal boshqaruv ta’sirini tanlashni ta’minlaydi.

MIMO modelining bashorat qilish xususiyatlaridan foydalanish berilgan bashorat gorizontida obyekt holatining evolyutsiyasini baholash imkonini beradi, bu esa boshqarish tizimining funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi va uning samaradorligini oshiradi. Obyektning nazorat qilinuvchi parametrlari qiymatlarini bir nechta ogohlantirish qadamlarida bashorat qilish namunasi 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Obyektning nazorat qilinuvchi parametrlari qiymatlarini ogohlantirishning bir necha qadamlarida bashorat qilish.


Hisoblangan boshqaruvchi ta’sir *u(t)* boshqarish obyektiga uzatiladi va texnologik konturda amalga oshiriladi. Keyingi bosqichda, jarayon holatining yangilangan o‘lchovlari kelib tushgandan so‘ng, takroriy optimallashtirish jarayoni bajariladi, natijada boshqarish o‘zgaruvchisining yangi qiymati shakllanadi.

Shunday qilib, boshqarish obyektning holati haqidagi dolzarb ma’lumotlarni hisobga olgan holda boshqaruvchi ta’sirlarni tuzatishni ta’minlaydigan rekurrent qayta hisoblash tamoyili bo‘yicha amalga oshiriladi.

MPC-rostlagichning ishlash prinsipining grafik tasviri 8-rasmda keltirilgan.

Obyektning nochiziqligini hisobga olishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu maqsadda LPV-ko‘rsatishdan (Linear Parameter Varying) foydalanish taklif etilgan bo‘lib, unda model parametrlari kolonnaning joriy ishlash rejimiga qarab


o‘zgaradi. Bunday yondashuv nochiziqli bashoratli boshqarishning murakkab hisoblash algoritmlariga o‘tmasdan, harorat, karbonizatsiya darajasi, ammiak konsentratsiyasi va uglerod dioksidi sarfining o‘zgarishini hisobga olish imkonini beradi.



8-rasm. MPC-rostlagichning ishlash prinsipi tasviri.

To‘rtinchi bobda ishlab chiqilgan boshqarish tizimining samaradorligini imitatsion modellashtirish va tadqiq qilish amalga oshirilgan.


Hisoblash tajribalarini o‘tkazish uchun karbonizatsiya jarayonining dinamik modeli, MPC algoritmi, g‘alayonlarni shakllantirish bloklari va sonli tahlil vositalarini o‘z ichiga olgan MATLAB/Simulinkda integrallashgan modellashtirish muhiti ishlab chiqildi.



9-rasm. MPC-rostlagichi karbonizatsiya jarayonini boshqarish tizimining strukturaviy imitatsion modeli.

Tuzilmaviy imitatsion model ko‘p kirish-ko‘p chiqish (MIMO) tizimi sifatida qurilgan bo‘lib, u karbonizatsiya jarayonining fizik-kimyoviy tabiatini taqsimlangan parametrlar va yaqqol ifodalangan o‘zaro bog‘liqliklarga ega obyekt sifatida aks ettiradi (9-rasm).

Matlab dasturida boshqarish tizimining imitatsion modeli 10-rasmda keltirilgan. Shakllangan modellashtirish muhiti yopiq boshqarish konturida ham alohida kanallarning dinamikasini, ham ko‘p bog‘lamli tizimning umumiy xatti-harakatini tadqiq qilish imkonini beradi.



10-rasm. Boshqarish tizimining imitatsion modeli.

Boshqaruv tizimi tegishli sath, harorat va sarf datchiklari bilan jihozlangan sathni (LIRC), haroratni (TIRC) hamda gaz aralashmalari sarflarini (FIRC) rostlash konturlari, shuningdek, CO_2 konsentratsiyasini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan gaz analizatorlari ATni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, tizim tarkibiga karbonizatsiya jarayonining matematik modelini amalga oshiradigan hamda o‘lchash qiyin bo‘lgan texnologik parametrlarni va mahsulotning sifat ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida aniqlashga mo‘ljallangan, mikroprotsessorli hisoblash qurilmasi ko‘rinishidagi virtual analizator kiritilgan.

Boshqarish samaradorligini baholash uchun tuzli eritma tarkibining o‘zgarishi, CO_2 sarfining o‘zgarishi, harorat ta’siri va rejimning buzilishini o‘z ichiga olgan g‘alayonlarning namunaviy ssenariylari to‘plami shakllantirildi.

MPC-rostlagichni sozlash parametrlarining boshqarish sifatiga ta’siri tadqiq etildi. Nazorat qilinuvchi o‘zgaruvchilar vaznining ortishi belgilangan rejimga tezroq erishishni ta’minlashi, biroq boshqaruvchi ta’sirlar intensivligining ortishi bilan kechishi ko‘rsatilgan. Tartibga solish sifati va hisoblash xarajatlari o‘rtasidagi murosani ta’minlovchi bashoratlash va boshqarish gorizontlarining ratsional qiymatlari aniqlandi.

Ishlab chiqilgan MPC tizimi noaniq PID-rostlagichga asoslangan an’anaviy

boshqarish tizimi bilan taqqoslandi. Modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, MPC dan foydalanish rejimga chiqish vaqtini 180 soniyadan 90 soniyagacha qisqartirish, qayta rostlashni 22 % dan 8 % gacha kamaytirish, mahsulot sifatining o‘zgaruvchanligini 40 % ga kamaytirish va energiya sarfini taxminan 10 % ga kamaytirish imkonini beradi.

Taqqoslash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Ishlab chiqilgan MPC tizimini noaniq PID-rostlagich asosidagi an’anaviy boshqarish tizimi bilan taqqoslash natijalari

Ko‘rsatkichlar	**Noaniq PID rostlagichi**	**MPC rostlagichi**
O‘tish jarayonini o‘rnatish vaqti	180 s	90 s
Qayta rostlash	22 %	8 %
Energiya sarfi	100 %	90 %

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, prediktiv boshqarishni qo‘llash tashqi g‘alayonlarning yanada samarali kompensatsiyasini ta’minlaydi, texnologik rejimning barqarorligini yaxshilaydi va xavfsizlik talablarini buzmasdan texnologik cheklovlar yaqinida uskunalarni ishlatish imkonini beradi.

XULOSA

Dissertatsiyada murakkab kimyoviy-texnologik jarayonlarni modellashtirish hamda intellektual va bashoratli boshqarish nazariyasining konsepsiyalari asosida karbonizatsiyalash jarayonini MIMO-modelga ega bashoratli MPC-rostlagich yordamida takomillashtirilgan boshqarish algoritmlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy natijalar olindi:

1. Moddiy balanslar, reaksiyalar kinetikasi, massa va issiqlik almashinishini o‘z ichiga olgan karbonizatsiya jarayonining umumlashtirilgan matematik modeli ishlab chiqildi. Sanoat ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan verifikatsiya modelning adekvatligini tasdiqladi, bu yerda maksimal nisbiy xatolik 4,7 % dan oshmadi.

2. Dinamik model asosida karbonizatsiya kolonnasining holatlar fazosidagi LPV-ko‘rinishi shakllantirildi. Bu esa real vaqt rejimida MPC algoritmining hisoblash imkoniyatini saqlagan holda obyektning nochiziqligi va nostatsionarligini hisobga olishga imkon berdi. Harorat, karbonizatsiya darajasi, o‘ta to‘yinish va $NaHCO_3$ konsentratsiyasi bo‘yicha cheklovlarni hisobga olib, CO_2 va tuzli eritma sarfiga, sovutish hamda bosimga kelishilgan holda ta’sir ko‘rsatuvchi adaptiv MIMO-MPC boshqarish tizimining tizimi ishlab chiqildi.

3. Imitatsion modellashtirish natijalari taklif etilgan MPC-rostlagichning noaniq PID-rostlagichga nisbatan afzalliklarini tasdiqladi. Integral mutlaq xatolik 12,5 dan 5,3 gacha, integral kvadratik xatolik 18,2 dan 6,8 gacha kamaytirildi; rostlanish vaqti 180 s dan 90 s gacha, o‘ta rostlanish esa 22 % dan 8 % gacha qisqartirildi. Binobarin, rostlash aniqligi ikki barobardan ziyod oshirildi va o‘tish

jarayonining davomiyligi ikki barobarga qisqardi.

4. Turg‘unlikni tadqiq qilish natijalari kinetik koeffitsiyentlar ±20 % ga va issiqlik almashinish koeffitsiyenti ±15 % ga o‘zgarganda ham tizimning barqaror ishlashini ko‘rsatdi. Bu esa sanoatdagi tebranishlar sharoitida tizimning robastlik zaxirasi yetarli ekanligini tasdiqlaydi.

5. Karbonizatsiya jarayonining amaldagi TJABTga MPC tizimini sanoat miqyosida joriy etish arxitekturasi taklif qilindi. U SCADA-tizim darajasi, sanoat kontrolleri, mahalliy PID-konturlar va o‘lchash asboblarini o‘z ichiga oladi. Bu esa mavjud avtomatlashtirish tizimini tubdan o‘zgartirmasdan intellektual boshqaruvni joriy qilish imkonini beradi.

6. Texnik-iqtisodiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan tizimni qo‘llash CO_2 sarfini taxminan 8 % ga, NH_3 sarfini 6 % ga, energiya xarajatlarini 10 % ga kamaytirishga hamda asosiy mahsulot unumini qariyib 5 % ga oshirishga imkon beradi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.T.02.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА

ИСХАКОВА ФАТИМА ФАХРИТДИНОВНА

УСОВЕРШЕНСТВОВАННОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССОМ КАРБОНИЗАЦИИ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ КАЛЬЦИНИРОВАННОЙ СОДЫ

05.01.08 – Автоматизация и управление технологическими процессами и производствами

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2026.3.PhD/T6988.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.tdtu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Юсупбеков Нодирбек Рустамбекович** доктор технических наук, профессор, академик АН РУз
Официальные оппоненты:	**Иваньян Арсен Игнатович** Доктор технических наук (DSc)
	Хамидов Баходир Таджиддинович кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	**АО «Узкимесаноатлойиха»**

Защита диссертации состоится «7» 12 2026 года в 14[00] часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.02.03 при Ташкентском государственном техническом университете (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел: (99871) 246-46-00; факс: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (зарегистрировано №179 (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 207-14-70).

Автореферат диссертации разослан «23» 11 2026 года.
(реестр протокола рассылки №21 от «2» 11 2026 года)

Ф.Т.Адилов
Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

У.Ф.Мамиров
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

Х.З. Игамбердиев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор, академик АН РУз

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В последние годы в мире особое внимание уделяется автоматизированным системам управления сложными химико-технологическими процессами, в частности, использованию методов математического моделирования и прогнозного управления. Перспективными считаются разработки, направленные на достижение энерго- и ресурсосбережения при управлении процессом карбонизации в производстве кальцинированной соды, а также на создание моделей, алгоритмов и систем, обеспечивающих стабильность качества продукции. В этом контексте одной из актуальных задач является построение адекватной динамической модели процесса карбонизации и разработка на ее основе систем прогнозирующего управления, учитывающих изменения технологических параметров процесса.

В мире ведутся научные исследования, направленные на математическое моделирование сложных технологических процессов на промышленных предприятиях и разработку систем управления на основе современных технологий. В этом направлении, в частности, актуальным является создание математических моделей, методов и алгоритмов, позволяющих строить системы прогнозирования состояния технологических процессов и изменения их параметров в режиме реального времени. В связи с этим особое внимание уделяется разработке математических моделей, учитывающих термодинамические, кинетические и динамические свойства процесса карбонизации, а также созданию на их основе усовершенствованных алгоритмов управления, позволяющих прогнозировать изменения технологических параметров.

